

8-sinf O`zbekiston tarixi

Nazorat ishi-2 (8-9-10-11-mavzular bo`yicha)

1. Abdullaxon II Akbarshoh huzuriga birinchi marta elchilarini qachon yuboradi?

- A) 1584-yilda B) 1572-yilda C) 1585-yilda D) 1577-yilda

2. Shayboniyxon bilan qaysi Usmonli turklar sultoni o`rtasida Eron Safaviylariga qarshi kurash to`g`risida shartnoma tuzilgan?

- A) Sulton Salim B) Navro`z Ahmadxon C) Baroqxon D) Boyazid II

3. Mir Arab madrasasi qayerda qurilgan edi?

- A) Buxoroda B) Karmanada C) Toshkentda D) Samarqandda

4. Shayboniy davrida bolalarga necha yoshdan ta`lim beriladigan edi?

- A) 6 yoshdan B) 7 yoshdan C) 8 yoshdan D) 5 yoshdan

5. Hofiz Tanish Buxoriy qalamiga mansub asarni aniqlang.

- A) "Zubdat ul osor" B) "Shayboniynoma" C) "Badoye ul vaqoye" D) "Abdullanoma"

6. Ashtarxoniylar kimning naslidan hisoblanishadi?

- A) Edigei B) Jo`ji C) Shayboniy D) Nog`ay

7. Ashtarxoniylar sulolasi vakili Vali Muhammad hukmronlik yillarini aniqlang.

- A) 1605-1611-yillar B) 1642-1645-yillar C) 1611-1642-yillar D) 1601-1605-yillar

8. Qaysi ashtarxoniy hukmdor o`z xohishi bilan taxtdan voz kechib, Makkaga hajga borib, o`sha yerda vafot etgan edi?

- A) Abdulazizxon B) Ubaydullaxon C) Subhonqulixon D) Nodir Muhammad

9. 1702-yilda Subxonqulixon vafotidan keyin taxtga kim o`tirdi?

- A) Abdulmo`minxon B) Abulg`ozixon C) Abulfayzxon D) Ubaydullaxon II

10. Ashtarxoniylardan Abulfayzxon davrida katta lavozimga va obro`ga erishgan Muhammad Hakimbiy qaysi urug`dan bo`lgan? A) yuz B) ming C) mang`it D) kenegas

11. 1710-yilda mustaqil Qo`qon xonligiga asos solgan shaxsni aniqlang.

- A) Shohruxbiy B) Abdukarimbiy C) Mahmudbiy D) Ibrohimbiy

12. 1722-1731-yillarda mavjud bo`lgan Samarqand xonligining asoschisi Ibrohimbiy o`ziga qanday unvon oladi?

- A) amir ul-umaro B) amir ul-mo`minin C) qo`shbegi D) devonbegi

13. Nechanchi yilda Buxoro xonligi Eronga qaram davlatga aylandi?

- A) 1740-yilda B) 1743-yilda C) 1747-yilda D) 1736-yilda

14. Ashtarxoniylar davrida barcha soliqlardan ozod qilingan yerlarni aniqlang.

- A) jogir B) mulki hurri xolis C) tanho D) iqto

15. Ubaydullaxon qachon pul islohoti o`tkazib, kumush tangadagi kumush miqdorini 35 foizdan 9 foizga tushurgan edi?

- A) 1711-yilda B) 1709-yilda C) 1710-yilda D) 1708-yilda

16. XVI asrda 3 ta harbiy kuch kurash maydoniga chiqdi: shayboniylar, boburiylar, ...?

17. Shayboniy davrida ilm-fanning qaysi sohalari boshqa sohalarga qaraganda ildamroq rivojlandi?

18. Ashtarxoniylar davrida davlat yerlari qanday atalgan?

19. "Registon (saroyning oldi) tinch bo`lsa bo`lgani" degan gapni qaysi hukmdor doim takrorlab turgan?

20. Jonibek Sulton Zuhrabegimdan necha nafar o`g`il farzand ko`radi?

TEST SAVOLLARIGA O`QUVCHINING JAVOBLARI:

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
Javob	B	D	A	A	D	B	A	A	D	C	A	A	A	B	D

16. SAFAVIYLAR.

17. TARIX VA TIBBIYOT.

18. MULKI SULTONIY.

19. ABULFAYZON

20. 3 NAFAR: 1. DIN MUHAMMAD. 2. BOQI MUHAMMAD. 3. VALI MUHAMMAD



**TUZUVCHI: SIRDARYO VILOYATI GULISTON TUMANIDAGI 13-UMUMTA`LIM
MAKTABINING TARIX FANI O`QITUVCHISI KOMILJON HASANOV.**